

**AXBOROT MUHITI SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
QO'LLASH ORQALI TA'LIM TIZIMIGA PSIXOLOGIK XIZMAT  
KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*

Tel: +998 (97) 200-43-44

e-mail: ([ndonayeva@dtpi.uz](mailto:ndonayeva@dtpi.uz))

<https://orcid.org/0009-0004-5206-4644>

**Tadqiqot maqsadi:** Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Aynan ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etishdagi ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Tadqiqot mazmuni:** Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish, tadbqiq qilish, mavjud metodlardan samarali foydalanish va olingan natijalarni talqin qilish bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni shakllantirish bugungi kundagi psixologlar oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib, bo'lajak mutaxassislariga psixodiagnostik metodikalardan foydalanishning psixometrik talablari, shuningdek psixologik testlashtirish sohalari va psixodiagnostik metodikalarni qo'llanish istiqbollari, eksperimental tadqiqotlarni tashkil qilish va uni o'tkazish to'g'risida tushuncha berish talab qilinadi. Psixologik maxsus adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyandalari tadqiqotlarini quyidagicha izoxlash mumkin: V.Vundtning 1900 yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o'n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma'naviyati, madaniyati va mafkurasini o'rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vil'yam Makdugallning 1908 yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari"

nazariyasi freydizmga qarshi o'laroq inson instinktlari va faoliyat uyg'unligini ta'minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo'lib xizmat qildi. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individdning) tabiiy va tug'ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog'liq tashkil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi. Psixodiagnostik tadqiqotlarda axborot kommunikatsion texnologiyalarning qo'llanilishi ijtimoiy psixologik eksperiment (tadqiqot) ning sifatini, olingan natijalarning ob'ektivligini oshirishi, natijalarni qayta ishlashning tezligi va aniqligini ta'minlashi, shu asosda psixodiagnostik natijalardan klinik sharoitlarda tezkor foydalanish, o'quv jarayonida individual yondashishni amalga oshirish, qisqa vaqt oralig'ida bolalar va kattalarning aqliy rivojlanganlik darajasini baholash, ularning kasbga qobiliyatlarini aniqlash imkonini berishini qayd qilish lozim. Kompyuterlashtirilgan diagnostikaning ustunlik tomonlari uning o'ziga xos metodikalarni ishlab chiqish muammosini qo'yadi. Bu borada yechilmagan juda ko'p masalalar mavjud. Shunday masalalardan biri qo'llanilib kelayotgan, o'zining samaradorligini amalda isbotlagan metodikalarni kompyuterlashtirishdir. Shu sababli an'anaviy va avtomatlashtirilgan (kompyuterlashtirilgan) metodikalarning natijalarini taqqoslashga doir tadqiqotlar o'tkazish juda muhim. Bu borada ilmiy izlanishlarimizning asosiy vazifasi: zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalari, xususan, kasb ta'limida hozirgi holati va taraqqiyot tendensiyalari to'g'risida dolzarb axborotlar berish, pedagog amaliy instrumentlari - dasturiy majmualar va axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga o'quvchilarni ancha oson o'qitish imkonini berdi. Audio va vizual materiallardan foydalanish orqali talabalar o'qitiladigan mavzularni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Sinfda o'qitiladigan nazariyani ko'rsatish va amaliy jihatini qo'yish endi ancha osonlashdi. Shunday qilib, sekin o'rganuvchilar sinfda dastlab o'rgatilgan narsalarni tushunganlar bilan uchrashish imkoniyatiga ega. Shu o'rinda masofadan o'qitishga ham qisqacha to'xtalib o'tsak. Noyob talablarga ega bo'lgan o'zgaruvchan aholiga moslashish uchun ta'lim muassasalari ushbu yangi demografik holatni qondirish uchun ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishdi. Onlayn kurslar band bo'lgan va yosh aholining ko'pchiligiga sinfga

qaytish va ikkinchi daraja yoki qo'shimcha sertifikatlar olish imkonini berdi. Chet eldagi kollejda o'qishni hatto o'z mamlakatingizdan tashqariga chiqmasdan ham va o'zingiz uchun qulay bo'lgan vaqtda o'qish mumkin. Texnologiyadan foydalangan holda talaba yozuvlarini yanada tizimli va xavfsizroq saqlash mumkin.

Xulosa: Pedagog mashg'ulot jarayonini va pedagogik xizmatni tashkil etishda integratsiyalashgan ta'lim vositalaridan foydalangan holda tashkil etsa, talabalar darsda o'tiladigan mavzularni tez va oson tushunib oladilar. Integratsiyalashgan ta'lim vositalari asosida mashg'ulot o'tilayotganda talabalar berilayotgan bilimlarni puxta o'zlashtirishi bilan birga olgan bilimlarini xalq xo'jaligining barcha sohalari bilan bog'lashni tushunib yetadilar. Integratsiyalashgan ta'lim vositalari orqali tushuntirishda psixodiagnostik manbalariga oid ma'lumotlardan foydalanish pedagog shaxsiga ulkan imkoniyatlar yaratib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. O'quv qo'llanma Buxoro 2007y.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999y
3. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. – С. 125-127.
4. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Avезов O.P. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
5. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b
6. Saifiddinova, S. N. (2024). The Essence of the Improvement of Innovative Activity in Higher Education Institutions. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 441-445.
7. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
8. Rahmanqulov, S. (2024). O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DEVIANT XULQ ATVORINI O'RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARNING O'RNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9850>
9. RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.

10. Abduhamidovich, R. S. (2023). O'ZBEKISTONDA MILLIY TA'LIM TIZIMINI CHET EL TA'LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. Conferencea, 97-101.

11. Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMIK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131.

